

## JINOYAT-PROTSESSI PRINSIPLARI TUSHUNCHASI VA MOHIYATI

*Toshkent shahar Advokatlar palatasi “AHIL ADVOKATLAR  
XIMOYASI” Advokatlar xaya’ati advokati Akramov Behzod Azamat o`g`li*

**ANNOTATSIYA:** *Ushbu maqolada rivojlanib borayotgan mamlakatimizdagi jinoyat protsessida insonlarning huquq va erkinliklarining davlat himoyasida ekanligi, ularni himoya qilishda jinoyat-protsessi prinsiplarining mohiyati, tahlili, qo`llanilishi uning xalqimiz ravnaqi, sog`lom turmush tarzi yaxshilashdagi o`rni va ularni rivojlantirish jihatlari ilmiy-amaliy nuqtai nazardan tahlil qilingan.*

**KALIT SO‘ZLAR:** *jinoyat-protsessi, jinoyat-protsessi huquqi, jinoyat-protsessi prinsiplari, Konstitutsiya, qonuniylik, aybsizlik prezumpsiyasi, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchini himoyalash huquqi bilan ta’minlash, protsessual harakatlar va qarorlar ustidan shikoyat qilish huquqi.*

*Акрамова Бехзод Азамат угли, юрист Адвокатской палаты города  
Ташкента «AHIL ADVOKATLAR XIMOYASI»*

**АННОТАЦИЯ:** *В данной статье государство защищает права и свободы людей в уголовном процессе в нашей развивающейся стране, суть, анализ и применение принципов уголовного процесса в их защите, его роль в улучшении развития нашего народа, здорового образа жизни. , а также аспекты их развития с научной и практической точки зрения.*

**КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:** *уголовный процесс, уголовно-процессуальное право, принципы уголовного процесса, Конституция, законность, презумпция невиновности, предоставление подозреваемому, обвиняемому и подсудимому права на защиту, права обжалования процессуальных действий и решений.*

*Tashkent City Bar Association “AHIL ADVOKATLAR XIMOYASI”*

*lawyer Akramov Behzod Azamat o`g`li*

**ABSTRACT:** *This article analyzes from a scientific and practical perspective the fact that human rights and freedoms are protected by the state in the criminal process of our developing country, the essence, analysis, and application of the principles of criminal procedure in their protection, its role in improving the prosperity and healthy lifestyle of our people, and aspects of their development.*

**KEY WORDS:** *criminal procedure, criminal procedure law, principles of criminal procedure, Constitution, legality, presumption of innocence, provision of the suspect, accused and defendant with the right to defense, the right to appeal procedural actions and decisions.*

Jinoyat protsessi prinsiplari – bu O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va Jinoyat-protsessual kodeksida mustahkamlangan, jinoyat ishlarini yuritishning eng muhim xususiyatlari, xarakteri va mazmun-mohiyatini belgilovchi hamda jinoyat ishlarini qo‘zg‘atish, tergov qilish, sudda ko‘rib chiqish va hal qilish bilan bog‘liq jinoyat-protsessual faoliyatida jinoyat-protsessual munosabatlar sohasiga jalb etilgan fuqarolarning huquq va erkinliklarini amalda ta‘minlashga va jinoyat protsessi maqsadlariga erishishga xizmat qiluvchi asosiy huquqiy qoidalardir[1].

Jinoyat protsessi prinsiplari tushunchasi. Ma‘no jihatidan prinsiplar – bu rahbariy g‘oyalar va tegishli faoliyatning asosiy qoidalaridir. “Prinsip” so‘zi lotincha “principium” so‘zidan kelib chiqib, uning ma‘nosi – “asos”, “asosiy omil” kabi tushunchalarni anglatadi. Prinsiplar oddiy yuridik g‘oyalar bo‘lmaganligi hamda adolat va lozimlikning hamma uchun majburiy va obyektiv jihatdan zarur bo‘lgan mezonlarini huquqda belgilashi ularning asosiy mazmunini tashkil etadi. Barcha prinsiplar bir-biri bilan uzviy bog‘langan bo‘lib, ular odil sudlov maqsadlariga erishish uchun teng muhim bo‘lgan huquqiy asoslarning yaxlit majmuyini yaratadilar. Jinoyat protsessi prinsiplari mazmuni, tartibga

solish manbalari va harakat doirasiga qarab bir-biridan farqlanadi. Jinoyat protsessi prinsiplarining ayrimlari jinoyat ishlarini yuritishning barcha bosqichlarida amal qilsa, ayrimlari esa uning ma'lum bosqichlarida amal qiladi. Qonuniylik, shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilish, aybsizlik prezumpsiyasi kabi prinsiplar jinoyat ishlarini yuritishning barcha bosqichlarida amal qiladi. Sudda jinoyat ishlarining oshkora ko'rilishi va sudda ishlarni yuritishda tortishuv kabi prinsiplar jinoyat ishlari bo'yicha sudda ish yuritish bosqichidagina amal qiladi[2].

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksining 2-bobi "jinoyat protsessi prinsiplari" deb nomlanib, 11-27-moddalarida alohida sanab o'tilgan bo'lib, ular quyidagilardan iborat: qonuniylik, odil sudlovning faqat sud tomonidan amalga oshirilishi, jinoyat ishlarini hay'atda va yakka tartibda ko'rib chiqish, sudyalarning mustaqilligi va ularning faqat qonunga bo'ysunishi, jinoyat ishini qo'zg'atishning muqarrarliligi, odil sudlovni fuqarolarning qonun va sud oldida tengligi asosida amalga oshirish, shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilish, sudda jinoyat ishlarining oshkora ko'rilishi, jinoyat ishlari yuritiladigan til, jinoyat ishlarini yuritishda jamoatchilikning ishtiroki, haqiqatni aniqlash, aybsizlik prezumpsiyasi, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchini himoyalash huquqi bilan ta'minlash, sudda ishlarni yuritishda tortishuv, dalillarni bevosita va og'zaki usulda tekshirish, protsessual harakatlar va qarorlar ustidan shikoyat qilish huquqi[2].

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 3-bobining Konstitutsiya va qonunning ustunligi prinsipiga bag'ishlangan bo'lib, unda O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so'zsiz tan olinishi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega, to'g'ridan-to'g'ri amal qiladi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil etishi, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsip va normalari bilan bir qatorda O'zbekiston

Respublikasi huquqiy tizimining tarkibiy qismi ekanligi, agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining qonunida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasi qoidalari qo'llanilishi, davlat va uning organlari, boshqa tashkilotlar, mansabdor shaxslar, fuqarolik jamiyati institutlari hamda fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish yuritilishi ko'rsatilgan[3].

Birinchidan, jinoyat protsessi prinsiplari jamiyatdagi huquqiy tartibni saqlash va adolatni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Ushbu prinsiplar huquqiy tizimning asosi bo'lib, jinoyat ishlarini samarali va adolatli tarzda hal etishda yordam beradi. Ularning jamiyatdagi roli quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi:

Adolatni ta'minlash: Jinoyat protsessining asosiy maqsadi jinoyat sodir etgan shaxsni to'g'ri jazolash va aybsizlarni nohaq jazolashdan saqlanishdir. Protsess prinsiplari aybni isbotlash yoki rad etish jarayonini adolatli tarzda olib borishni ta'minlaydi.

Huquqiy himoya: Protsess prinsiplari, ayniqsa, ayblovdagi shaxsning huquqlarini himoya qilishga xizmat qiladi. Ular ayblov va himoyaning teng imkoniyatlar bilan namoyon bo'lishini, shuningdek, har bir shaxsga o'z huquqlarini amalga oshirishda yordam berish uchun zarur sharoitlar yaratadi.

Transparensiya va javobgarlik: Jinoyat protsessida prinsiplarga rioya qilish, jarayonning ochiqligini ta'minlaydi. Bu esa jamiyatda huquqiy tizimning ishonchliligini oshiradi, fuqarolarni sud tizimiga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi.

Hukmning asosli bo'lishi: Jinoyat protsessining prinsiplariga rioya qilish hukmning ilmiy va ishonchli bo'lishini ta'minlaydi. Bu esa jinoyatlarni tasdiqlash yoki rad etishda qonuniy va asosli qarorlar qabul qilishga yordam beradi.

Fuqarolar huquqlarini himoya qilish: Jinoyat protsessining prinsiplari, jumladan, ayblovdan oldingi qonuniy himoya, fuqarolarning erkinligini, sha'nini va qadrini saqlashga qaratilgan. Shu orqali, jinoyat protsessi fuqarolarning

huquqlarini, hatto jinoyatchilikda gumon qilinayotgan shaxslar uchun ham himoya qiladi.

Umuman olganda, jinoyat protsessi prinsiplarining jamiyatdagi roli, huquqni ustuvor qilish, adolatni ta'minlash va fuqarolarning huquqlarini himoya qilishda muhim ahamiyatga ega. Bu prinsiplar orqali jamiyatda jinoyatga qarshi kurashish va adolatli hukm chiqarishni ta'minlash mumkin.

Ikkinchidan, sud, jinoyat protsessining asosiy organi bo'lib, shu prinsiplarni amalda tatbiq etish orqali adolatli qarorlar qabul qiladi. Ushbu prinsiplar sud tizimining faoliyatini, qonun ustuvorligini va inson huquqlarini himoya qilishni ta'minlashga yordam beradi. Suddagi roli quyidagi jihatlardan iborat:

Adolatni ta'minlash, deganda, jinoyat protsessi prinsiplariga rioya qilish, sudning asosiysi bo'lib, adolatni ta'minlashga xizmat qiladi. Sud jinoyat ishini hal etishda barcha tomonlarning (ayblovchi va himoyachi) huquqlarini muhofaza qilishi, shuningdek, har qanday qarorni adolatli va asosli ravishda qabul qilishi zarur. Bunda sud, barcha dalillar va guvohliklarni o'rganib, haqqoniy va to'g'ri hukm chiqarish uchun muvozanatli yondashuvni tanlaydi. Jinoyat protsessi prinsiplaridan biri — sud jarayonining oshkoraligi va shaffofligini ta'minlashdir. Bu, sud zalida jarayonning ochiq bo'lishini, umumiy ko'rinishda amalga oshirilishini anglatadi. Bu prinsip sudning ishonchliligini oshiradi, sud qarorlarining haqqoniylikini ta'minlaydi va jamiyatda sud tizimiga bo'lgan ishonchni kuchaytiradi. O'z huquqlarini himoya qilish imkoniyati jinoyat protsessida sud, ayblovdan himoya qilinayotgan shaxsning huquqlarini himoya qilishni o'z zimmasiga oladi. Sud, shuningdek, ayblovchi tomonning ham huquqlarini ta'minlaydi. Sudda har bir tomon o'z nuqtai nazarini va dalillarini kiritish huquqiga ega. Bu prinsip sudning tarfkash emas, balki xolis bo'lishini ta'minlaydi.

Xolislik va tarfkashlikdan qochish. Sudning asosiy vazifalaridan biri, barcha ishtirokchilarga nisbatan xolis va tarfkashlikdan holi bo'lishidir. Jinoyat protsessi prinsiplaridan biri — sudning xolisligi bo'lib, bu prinsip sudning adolatli

qarorlar chiqarishini ta'minlaydi. Sud, hech bir tomonning manfaatlarini chetlab o'tmasligi, faqat qonun va dalillarga asoslanib qaror qabul qilishi kerak.

Jinoyat protsessida sudning roli huquqiy himoyaning to'liq amalga oshirilishini nazorat qilishdir. Sud, ayblovchi va himoyachi o'rtasidagi teng huquqlilikni ta'minlashga, himoyachining (advokatning) ishtirokini va himoya qilish jarayonini to'g'ri tashkil etishga yordam beradi. Sud, himoya huquqlarini cheklamaydi va himoyachi va ayblovchining fikrlarini tinglash uchun imkoniyat yaratadi.

Jinoyat protsessi prinsiplariga binoan, sud barcha dalillarni objektiv va adolatli baholaydi. Bu, sudga barcha dalillarni tinglash, shuningdek, ularga munosib baho berish imkonini beradi. Sud, barcha dalillarni jismoniy va huquqiy jihatdan tahlil qilib, to'g'ri hukm chiqaradi. Protsessda dalillarni oshkor qilish va ishonchliligini tekshirishda ham sudning roli muhim.

Uchunchidan, O'zbekistonning jinoyat protsessi tizimi demokratik, huquqiy va adolatli tamoyillarga asoslanadi. Ushbu prinsiplarga rioya qilish nafaqat adolatli sud qarorlarini qabul qilishni ta'minlaydi, balki jamiyatda huquqiy tartibni o'rnatish, fuqarolarning huquqlarini himoya qilish, hamda sud tizimining ishonchliligini oshirishga yordam beradi. O'zbekistonning Jinoyat-protsessual kodeksi (JPK) va boshqa normativ huquqiy hujjatlari ushbu prinsiplarni belgilab beradi va amalda qo'llanilishini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasida sudlar mustaqil va faqat qonunga bo'ysunadi. Sudlar, har qanday tashqi ta'sirlardan xoli bo'lib, jinoyat protsessini adolatli va ob'ektiv tarzda olib borishlari kerak. Sud mustaqilligi, davlatning eng yuqori qadriyatlaridan biri bo'lib, barcha sud qarorlari, hukmlar va boshqa protsessual harakatlar faqat qonun asosida qabul qilinadi. Xolislik (tarafkashlikdan qochish). Jinoyat protsessida sud xolis bo'lishi kerak, ya'ni sud protsessida barcha ishtirokchilar (ayblovchi, himoyachi, guvohlar va boshqalar) o'z fikrlarini, dalillarini va himoyasini teng huquqli ravishda taqdim etishlari kerak. O'zbekistonning Jinoyat-protsessual kodeksida sudning xolisligi haqida alohida

bandlar mavjud bo'lib, sud hech qanday tashqi ta'sirlar yoki manfaatlardan ta'sirlanmasligi kerak.

Jinoyat protsessining muhim tamoyillaridan biri — har bir fuqaro, shu jumladan, jinoyat sodir etishda gumon qilingan shaxsning huquqlarini himoya qilishdir. O'zbekistonning Jinoyat-protsessual kodeksida gumon qilinayotgan yoki ayblanayotgan shaxsning huquqlarini himoya qilishga alohida e'tibor berilgan. Misol uchun, har bir shaxsga huquqiy yordam olish huquqi, o'ziga qarshi guvohlik berishdan bosh tortish huquqi, va adolatli sud sudyasi orqali sud ishining ko'rib chiqilishi kabi kafolatlar taqdim etiladi.

To'rtinchidan, jinoyat protsessida qonunchilik deganda, jinoyat ishlarini ko'rib chiqish, tergov qilish, sudlash va boshqa protsessual harakatlarni amalga oshirishda qo'llaniladigan barcha huquqiy me'yorlar, normalar va qonunlar tushuniladi. Jinoyat protsessi qonunchiligi mamlakatdagi jinoyat ishlarini hal etishda muhim rol o'ynaydi, chunki u barcha jinoyat ishlari uchun asosiy qoidalarga yo'l-yo'riq ko'rsatadi va sud tizimining ishlashini tartibga soladi. Jinoyat protsessida qonunchilik quyidagi huquqiy me'yorlar va normativ hujjatlardan iborat bo'lishi mumkin. Jinoyat protsessida, jinoyatning o'zi va unga qarshi qilingan harakatlar ham muhim ahamiyatga ega.

Me'yoriy hujjatlar va huquqiy normativ aktlar Jinoyat protsessida, hukumatning qarorlari, prezident farmonlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar (prokuratura, politsiya, sud) chiqargan normativ-huquqiy hujjatlari ham ahamiyatga ega. Masalan, jinoyat protsessida tergovning ayrim turlari yoki jinoyat protsessual harakatlarni amalga oshirishda ko'maklashadigan normativ hujjatlar bo'lishi mumkin. Bu hujjatlar, jinoyat protsessini tartibga solish uchun aniq qoidalar yaratadi.

O'zbekiston, shuningdek, Xalqaro huquq va BMTning huquqiy normativ hujjatlarini ham hisobga oladi. Xususan, BMTning Inson huquqlari bo'yicha umumjahon deklaratsiyasi, Yevropa inson huquqlari konvensiyasi, BMTning fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi paktlari va boshqa xalqaro shartnomalar jinoyat protsessining asosiy tamoyillari va qoidalarini belgilaydi.

O‘zbekiston ushbu xalqaro huquqiy hujjatlar va standartlarga ham rioya qiladi. Va jinoyat ishlarini amalga oshirish va hal etishda qo‘llaniladigan barcha huquqiy normalar va qonunlar tushuniladi. Bu qonunlar nafaqat jinoyat ishlari bo‘yicha qarorlar qabul qilish jarayonini tartibga soladi, balki shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, adolatli sudlovni ta‘minlashga ham yordam beradi. O‘zbekiston Respublikasidagi jinoyat protsessual qonunchilik jamiyatda huquqiy tartibni saqlash, adolatni ta‘minlash va inson huquqlarini himoya qilishning asosiy vositasidir.

Beshinchidan, jinoyat protsessida aybsizlik prezumpsiyasi (ya‘ni, "aybsizlik farazi") — bu jinoyat protsessida gumon qilinayotgan yoki ayblanayotgan shaxsning aybdor emasligini, uni sud tomonidan aybdor deb topilmaguncha, isbotlanmagan deb hisoblash prinsipidir. Ushbu tamoyil barcha jinoyat protsesslarining asosiy huquqiy prinsiplaridan biridir va inson huquqlarini himoya qilishda muhim o‘rin tutadi.

Aybsizlik prezumpsiyasi huquqiy tizimda quyidagi ma‘nolarni anglatadi. Gumon qilinayotgan yoki ayblanayotgan shaxsning aybsizligi. Jinoyat protsessida gumon qilinayotgan yoki ayblanayotgan shaxs, uning jinoyatni sodir etganligi isbotlanmaguncha, aybdor deb hisoblanmaydi. Bu prinsipga ko‘ra, har bir inson o‘zining aybsizligini isbotlash huquqiga ega. Bu, jinoyat protsessida ishtirok etayotgan har bir shaxsning eng asosiy huquqlaridan biridir.

Aybsizlik prezumpsiyasi prinsipiga ko‘ra, jinoyat ishlari bo‘yicha ayblovchi tomon (odatda prokuratura) ayblovni isbotlash majburiyatiga ega. Tergov organlari yoki sud gumon qilinayotgan shaxsni aybdor deb hisoblash uchun barcha dalillarni va faktlarni taqdim etishi kerak. Agar bu dalillar yetarli bo‘lmasa, gumon qilinayotgan shaxs aybdor deb topilmaydi.

Aybsizlik prezumpsiyasi prinsipining asosiy maqsadi adolatli sudlovni ta‘minlashdir. Agar aybdorlikni isbotlashda shubha bo‘lsa, sud har doim gumon qilinayotgan shaxsni aybsiz deb hisoblashga majbur. Bu prinsip, aybsiz shaxsni noto‘g‘ri jazolashning oldini olish va inson huquqlarini himoya qilishga xizmat qiladi.



Aybsizlik prezumpsiyasi – aybdorning jinoyati qonuniy tartibda isbot qilinmaguncha, uni aybsiz deb faraz qilish. Ba’zan lotincha *Ei incumbit probatio qui dicit, non qui negat* (isbotni rad etuvchi emas, balki ta’kidlovchi berishi kerak) iborasi bilan ifodalanadi. Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi uning jinoyat sodir etishda aybdorligi qonunda nazarda tutilgan tartibda isbotlangunga va qonuniy kuchga kirgan sud hukmi bilan aniqlangunga qadar aybsiz hisoblanadi. Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o‘zining aybsizligini isbotlab berishi shart emas, chunki O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 86-moddasida ham isbot qilishni surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sud amalga oshirishi belgilangan. Ayblanuvchi ayblov hukmining e’lon qilinishi va uning qonuniy kuchga kiradigan vaqtgacha aybsiz hisoblanadi[4].

Oltinchidan, jinoyat protsessining prinsiplarini amalga oshirishda kamchiliklar — bu prinsiplarning to‘liq va samarali tarzda amalga oshirilishidagi muammolarni, xatolarni yoki cheklovlarni anglatadi. Jinoyat protsessi prinsiplariga rioya qilmaslik, yuridik tizimning ishonchligini pasaytirishi, adolatni ta’minlashda muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. O‘zbekiston Respublikasidagi jinoyat protsessida amalga oshirilayotgan prinsiplarni bajarishda ba’zi kamchiliklar mavjud bo‘lishi mumkin, va bu kamchiliklar quyidagi sohalarda o‘zini ko‘rsatishi mumkin. Qonun ustuvorligi prinsipining buzilishi, qonun ustuvorligi prinsipiga ko‘ra, barcha jinoyat protsessual harakatlar faqat qonun asosida amalga oshirilishi kerak. Ammo, ayrim holatlarda: Qonunlarning noaniqligi yoki takrorliligini keltirib chiqarishi mumkin. Masalan, ba’zi jinoyat protsessual kodekslar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar o‘rtasida tushunmovchiliklar va to‘qnashuvlar yuzaga kelishi mumkin. Jinoyat protsessida yo‘llanadigan qoidalar va huquqiy me’yorlarning noto‘g‘ri talqini ayrim holatlarda qoidalarni noto‘g‘ri ishlatish va noto‘g‘ri qarorlar qabul qilishga olib kelishi mumkin.

Xolislik prinsipining buzilishi. Xolislik — bu sudning tarafkashlikdan xoli bo‘lishi, ya’ni barcha ishtirokchilar (ayblovchi, himoyachi va boshqalar) uchun

teng imkoniyatlar yaratishni ta'minlashdir. Ammo: Sudning tarafkashligi hamon ba'zi holatlarda mavjud bo'lishi mumkin. Sudyalar, ayniqsa, siyosiy yoki ijtimoiy ta'sirlarga duchor bo'lishi, bu esa xolislikka zarar yetkazishi mumkin. Tergov organlarining maqsadga muvofiq ish yuritish: Ba'zi hollarda tergov organlari o'z manfaatlari yoki maqsadlariga qarab, ba'zi shaxslarni nohaq jinoyatga qo'yishi yoki dalillarni to'plashda xato qilishi mumkin.

Aybsizlik prezumpsiyasi (aybdorlik farazi) prinsipining buzilishi. Aybsizlik prezumpsiyasi prinsipiga ko'ra, gumon qilinayotgan yoki ayblanayotgan shaxs aybdor emas deb hisoblanadi va ayblovchini isbotlash majburiyati bor. Ammo ba'zi holatlarda: Ayblovning isbotlanmasligi sababli, ayblovchi shaxslar ba'zan nohaq jazolanishi mumkin. Tergov va sud jarayonlarida dalillarni to'plashdagi xatolar yoki kamchiliklar shaxsning aybdor deb hisoblanishiga olib kelishi mumkin. Zaruriy huquqiy himoya vositalarining etishmasligi: Ayrim shaxslar, ayniqsa, mablag'lari yoki malakali advokatlar bo'lmaganlarida, o'zlarini samarali himoya qilishda qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin.

Inson huquqlarini himoya qilishdagi muammolar. Jinoyat protsessining asosiy prinsiplaridan biri inson huquqlarini himoya qilishdir. Biroq, ba'zi hollarda: Qo'llaniladigan jazolar va usullar inson huquqlariga zid bo'lishi mumkin. Masalan, ayrim jinoyat ishlari bo'yicha sudlanuvchilarni jazolashda ortiqcha yoki nohaq jazolar qo'llanishi, ularning inson huquqlarini buzishi mumkin. Tergov davomida qiynoqlardan foydalanish — ba'zi holatlarda, tergovchilar jismoniy yoki ruhiy zo'rvonlikka murojaat qilishadi, bu esa aybsizlik farazini va shaxsning huquqlarini buzadi.

Yettinchidan, jinoyat protsessi prinsiplarini amalga oshirishdagi sudlarning xatolari — bu sudlar tomonidan jinoyat ishlarini ko'rib chiqishda, protsessual qoidalar va huquqiy prinsiplar buzilishi, ularning noto'g'ri talqini yoki bajarmasliklarini anglatadi. Sudlar jinoyat protsessining asosiy ishtirokchilari bo'lib, ularning harakatlari muhim ahamiyatga ega. Agar sudlar jinoyat protsessining prinsiplariga amal qilmasa, bu nafaqat adolatsiz qarorlar

chiqarilishiga olib kelishi, balki inson huquqlarining buzilishiga va huquqiy ishonchsizlikka sabab bo'lishi mumkin. Jinoyat protsessida sudlarning xatolari bir nechta asosiy sohalarda yuzaga kelishi mumkin. Quyida bunday xatolarga misollar keltirilgan:

Odil sudlovni ta'minlashning ustuvor vazifalari «Inson qadri uchun» g'oyasi asosida chinakam adolatli sud tizimini shakllantirish hamda uning faoliyatini xalq manfaati va inson qadr-qimmatini samarali himoya qilishga yo'naltirish, adolatli sud qarorlari qabul qilinishiga erishish orqali xalqning, shu jumladan, tadbirkorlarning sud tizimiga bo'lgan ishonchini mustahkamlash, har bir shaxs sud va sudyalarning siymosida o'zining ishonchli himoyachisini ko'rishiga erishish, fuqarolar hamda tadbirkorlarga o'z huquq va qonuniy manfaatlarini sudlarda himoya qila olishi uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, sud ishlarini yuritishda tortishuv va taraflarning tengligi tamoyillarini to'laqonli ro'yobga chiqarish, sudlarning xolisligini amalda ta'minlashga qaratilgan qonunchilikni takomillashtirish etib belgilandi[5].

Adolatli sudlov tamoyilining buzilishi. Adolatli sudlov — bu sudning barcha ishtirokchilarga teng imkoniyatlar berishi, har ikki tomonning fikrini to'liq eshitishi va qarorlar chiqarishda adolatni ta'minlashidir. Sudlarning bu prinsipni buzishining sabablari: Sudning jiddiy xatolarni amalga oshirishi: Masalan, sudning gumon qilinayotgan shaxsga qarshi nohaq hukm chiqarishi, barcha dalillarni va guvohlarni to'g'ri baholamasligi. Tushunarli bo'lmagan qarorlar chiqarish: Agar sudning qarorlari yoki unga asoslangan izohlar noaniq bo'lsa, bu himoyachining va ayblovdachining huquqlarini to'liq amalga oshirishga to'sqinlik qiladi.

“O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga sud hokimiyatining mustaqilligi kafolatlarini mustahkamlashga, sudlar faoliyati haqida jamoatchilikni xabardor qilishga hamda yagona sud amaliyotini ta'minlashga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida”gi qonuni bo'yicha. Bugungi kunda sud qarorlarining qonuniyligi, asoliligi va adolatliligini tekshirish institutini takomillashtirish orqali protsesual

kodekslarga fuqarolar uchun qulay hamda soddalashtirilgan tartibni yaratishga qaratilgan tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmoqda. Xususan, yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham sud hokimiyatining mustaqil holda ish yuritishga va sudyalarning muayyan ishlar bo'yicha hisobdor bo'lmisligiga oid konstitutsiyaviy kafolatlar belgilab qo'yilgani sudlar faoliyati samaradorligini oshirish yo'lidagi yana bir muhim qadam bo'ldi[6].

Protsessual muddatlarga rioya qilmaslik. Protsessual muddatlar — bu jinoyat ishlarining belgilangan muddatlarda ko'rib chiqilishi va ishning kechiktirilmisligidir. Sudlarning bu prinsipni buzish xatolari: Jinoyat ishlarini kechiktirish: Ba'zan sudlar yoki tergov organlari jinoyat ishlari bo'yicha protsessual muddatlarga rioya qilmasligi, bu esa gumon qilinayotgan shaxsning huquqlarini buzishi va adolatsiz sudlovga olib kelishi mumkin. Ishlarning uzun davom etishi: Ba'zi hollarda sud jarayonlari haddan tashqari uzoq davom etadi, bu esa himoya huquqlarini cheklaydi va shaxslarni nohaq tarzda jazolanishiga olib kelishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, Yurtimizda inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish, buzilgan huquqlari va erkinliklarini qayta tiklash sohasida jinoyat-protsessual kodeksida o'z aksini topgan prinsiplarni amalga oshirishdagi yo'l qo'yilayotgan xato va kamchiliklarni bartaraf etish yo'lida amalga oshirilayotgan ijobiy islohatlar bilan belgilangan chora-tadbirlarni to'liq vijdonan bajargan holda ta'minlash kerak ekanligini chuqur anglab yetib, bu bilan nafaqat huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlarini balki, har bir fuqarolarning ham huquqiy bilimini oshirgan holda huquqiy savodxonlikni ta'minlash kerak.

#### **MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

- [1] O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi. Toshkent Davlat Yuridik Universiteti. JINOYAT-PROTSESSUAL HUQUQI (yuridik texnikumlar uchun darslik) Toshkent – 2021, 14-bet.
- [2] O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi. Toshkent Davlat Yuridik Universiteti. JINOYAT-PROTSESSUAL HUQUQI (yuridik texnikumlar uchun darslik) Toshkent – 2021, 14-15-bet.

[3] O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 01.05.2023.

[4] Yangi tahrirdagi konstitutsiyada aybsizlik prezumpsiyasining mustahkamlanishi. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshidagi Yuristlar malakasini oshirish markazi. Jumayev Shohjahon Begimqul o‘g‘li. Elektron resurs: <https://uzmarkaz.uz/news/yangi-tahrirdagi-konstitutsiyada-aybsizlik-prezumpsiyasining-mustahkamlanishi>

[5] Sudlar faoliyatini yanada takomillashtirish va odil sudlov samaradorligini oshirish. Yuristlar malakasini oshirish Markazi dotsenti Nasullaev Mubin. Elektron resurs: <https://uzmarkaz.uz/news/sudlar-faoliyatini-yanada-takomillashtirish-va-odil-sudlov-samaradorligini-oshirish>

[6] *Sud hokimiyatining mustaqilligi kafolatlarini mustahkamlashga, sudlar faoliyati haqida jamoatchilikni xabardor qilishga hamda yagona sud amaliyotini ta'minlashga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar. Xorazm viloyat ma'muriy sudining sudya katta yordamchisi Qalandarov Abrorbek G'ulombekovich. Elektron resurs: <https://qushkupir.uz/site/view?code=Sud-hokimiyatining-mustaqilligi-kafolatlarini-mustahkamlashga--sudlar-faoliyati-haqida-jamoatchilikni-xabardor-qilishga-hamda-yagona-sud-amaliyotini-ta-minlashga-qaratilgan-o-zgartirish-va-qo-shimchalar>*